



## IRIMLAR BIZGA QANCHALIK KERAK?

Meyliyeva Dilnura Siroj qizi

Zamon qanchalik tez rivojlanmasin,hali hamon eski irimlar saqlanib kelmoqda.Biz faqatgina yon atrofimizda emas,balki jamiyatimizning turli qatlamlarida irimkash insonlarga duch kelyapmiz.Quyida shu haqida fikr-mulohazalarni bayon etib ko'ramiz.

Biz kundalik hayotda biror bir yumushga qo'l urganimizda yon atrofimizdagi insonlar bu ishlarni irimlar bilan rad etishadi.Masalan,qarama-qarshi ko'cha supurishsa,tez orada ikki kishi o'rtasida munosabat buzilishini aytishadi.Asilda,bu bir-biriga ko'maklashib,yumushlarni yengillashtirish emasmi? Yana,omma orasida,tirnoqlarni kun botgandan so'ng olmaslik,dasturxon atrofida qo'lni orqaga qo'yib suyanmaslik,yostiqlik ustiga,uyning bo'sag'asiga o'tirmaslik va shunga o'xshagan irimlar shunchaki irim emas,balki kundalik turmushimizga singib ketgan odatlardir. Biz bu kichik odatlar bilan hayotiy erkinliklarimizni yanada cheklab boramiz. Bundan tashqari,ayrim irimlar yosh bolalarda qo'rquv hissini uygotishga sabab bo'ladi.Chunki,ko'pchilik maktab o'quvchilari tepasidan qar'ga uchsa ular ikki baho olishini aytishadi. Ko'rinib turibdiki,irimkash insonlar har qadamda uchraydi.Ular irimlarga rioya qilmaslik hayotiy qiyinchiliklarga olib keladi deb hisoblaydi. Negaki,ularga bu odatlar ota-bobosidan,ularga esa undan oldingi avlodlaridan ma'lumot bo'lib qolgan.



Quyida keltirilgan irimlar O'zbekistonda ko'proq tarqalgan. Keling,chet eldagi irimlar bilan ham tanishib ko'ramiz.Shunday davlatlar borki,ular ma'lum bir sana va kunlar omadsizlik keltiradi deydi,chunki qadimgi diniy kitoblarda yozilishicha, Qobil ukasi Hobilni qatl qildirgan. Ahd diniy kitobi esa irimlarga tayangan holda 13-sana

juma kunga to'g'ri kelsa, demak, baxtsiz kun bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Yana, Buyuk Britaniya aholisi soyabonni hovlida ochsa, hovliga kulfatlar yomg'irdek yog'adi deb biladi. Lekin, boshqa mamlakatlar yomg'ir qut belgisi ekanligini ta'kidlashadi. Ular irimlarga rioya qilmaslik odamlar boshiga omadsizlik olib kelishini aytishadi. Masalan, ola mushuk yo'lovchi oldidan o'tsa u omadsizlikka uchrashi, oynani kimdir sindirib qo'ysa, 7 yil omadsizlikka uchrashi va hokazo... Dunyoda har xil millat vakillari bo'lgani kabi ularning irimlari ham turlicha. Ammo, bu irimlarga ishonishimiz dinimizga shak keltirish deganlar ham uchrab turadi.

Xulosa qilib aytganda, Odam odamdan aql oladi, lekin har kimning o'zi yo'li bor deganlaridek, har bir inson o'zi istagan yo'ldan borishi mumkin. Lekin biz bu irimlar bilan o'z imkoniyat darajalarimizni cheklashimiz shart emas.